

Osiyoning emas, balki yaqin va o'rta sharqning mashhur allomasi Abu Nasr Forobiyidir. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi shoiri va qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U aql haqida risola asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. U "Aql haqida risola" asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida bir qancha ma'lumotlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanningrolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi.

U inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganidan mayjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, Forobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk va etuk mahsuli bu insondir, u o'zining ongi aqli sezish organlari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi uning fikricha inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug'ilishidan mayjud lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksakligining etuk mahsuli bo'ladi va inson o'z bilimlarini aqlini rivojlantirib, so'ngra mavjudodning ibtidosi boshlanishi haqidagi ilmgaga etib boradi deb ko'rsatadi.

Forobiy o'simlik, hayvon va insonga hos hususiyat va qobiliyatlarini quvvat deb atadi va ularni uchga ajratadi uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixologik va fikrlash jarayonlariga ajratadi. Biologik jarayon barcha tirik organizmga fiziologik-psixologik jarayon hayvonlarga, aqliy jarayon ong faqat insonga xosdir.

Forobiy "Aql ma'nolari haqidagi risolasi" da aql - intellekt tushunchasini bir tomonidan psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomonidan, u tashqi ta'sirining, ta'lim tarbiyaning natijasi deb anglaydi. Uning fikricha, aql faqat insongagina hos bo'lgan tug'ma quvvat ruhiy kuch bilan bog'liq.

Forobiy aql va aqliy protsesning qanday talqin etilganligini tushunib olish uchungina emas, balki o'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikrlarida, umuman, aql deganda qanday qanday ma'nolar anglanganligini bilib olish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarida Forobiy aql tushunchasining 6 xil ma'noda, bir-biriga bog'liq bo'lgan olti turli mazmun bilan qo'llanishini ta'kidlaydi. Lekin, Forobiy bu ma'nolarni bir-biriga zid qo'ymaydi. Bu ma'nolar bir-birini to'ldiradi va boyitadi, risoladan aql va aqliy protsesning nihoyatda boy mazmunga ega ekanligi va Forobiy shu boy mazmunni har tomonlama anglab olishga harakat qilinganligi haqidagi xulosaga keladi.

Risolada dunyoviy aql, insonni Xudo bilan bog'lovchi fazoviy aql to'g'risidagi mistik mulohazalar ham uchraydi, lekin ular risolada ikkinchi o'rinda turadi. Risolaning asosiy mazmunini anglashga xalaqit bermaydi. Bu risolaning diqqatga sazovor bo'lgan eng muhim tomoni shundaki, Forobiy aqlning, bir tomondan psixik protses ekanligini va ikkinchi tomonidan, u tashqi ta'sirining, ta'lim tarbiyaning natijasi ekanligini yaxshi anglaydi.

Risolaning boshqa joyida "aql" va "aqlli bo'lish" ko'p narsani ko'rish, bilish, hayotiy tajriba orttirish natijasida qo'lga kiritilishi mumkinligi qayd etiladi.

Birinchidan, aqlning tug'ma bo'lib ko'rinvchi quvvatlar bilan bo'liqligi insonning psixik protseslari tarkibiga kiradi.

Ikkinchidan, aqlning bilim, hayotiy protseslar natijasida boyib borishi ta'lim tarbiyaga bog'liq, uni Forobiyning ta'lim tarbiya to'g'risidagi qarashlariga bagishlangan bo'limda ko'rib o'tamiz.

Aqliy protssesning xususiyatlari Forobiyning “Ilmlar kelib chiqishi to‘g‘risida” degan asari hamda “Evkilid kitobining muqaddimasiga yozilgan sharhlar” nomli risolasida bayon etilgan.

Bu risolada Forobiy aqliy bilishning sezgilardan farqlanishini aniqlagan va aqliy protssesga xos bo‘lgan belgilarni ajratishga intiladi. Forobiy yuqorida aytib o‘tganimizdek, bilish protssesining ikki bosqichini-hissiy va aqliy bilishni juda aniq qilib ifodalaydi. Uning “Falsafiy savollar va ularga javoblar” risolasiga nazar solamiz. Bu risola faqat aqliy bilish bilan hissiy bilishning farqini aniqlash jihatidangina emas, balki masalaning qo‘yilishi va hal etilishiga bog‘liq.²⁸

Bu risola savol javob shaklida bo‘lib, Forobiya berilgan savollarning xarakteri har xildir. Bu savollarga berilgan javoblar o‘zining qisqa va mazmunli bo‘lishi bilan ajralib turadi. (Forobiydan) narsalar obrazlarining yana necha xil yo‘l bilan vujudga kelishi haqida so‘radilar. U aytdi: narsalar obrazlarining ifodalanishi uch xil yo‘l bilan bo‘ladi. Ulardan biri obrazning sezgida ifodalanishi, ikkinchisi-aqlda ifodalanishi, uchinchisi esa jismda ifodalanishidir”. (Jism) obrazining aqlda paydo bo‘lishiga kelganimizda, bunda aqldan tashqarida bo‘lgan jismning obraqi materiya bilan va jism obraqi materiya bilan va jism holati bilan bog‘liq bo‘lmagan mustaqil holda vujudga keladi, demak jismsiz va unga oid bo‘lgan barcha narsalardan tashqari holda vujudga keladi.

Forobiy dunyoni aql yordamida bilishni nazarda tutib: “tushunish esa (narsalarni mohiyatini umumiy qoida va qonun) to‘g‘risidagi harakat bo‘lib ularning oxiri bor, chegaralangan hamda umumlashtirilgandir”.

Abu Nasr Forobiy aqlli insonlarga shunday ta’rif beradi: “Aqli deb shunday kishilarga aytiladiki ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo‘r iste’dodga ega yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradi! Bunday kishilarni oqil deydilar.”²⁹

Forobiyning fikricha, odamzod boshlang‘ichidan bo‘lmish quvvatlar-masalan so‘zlash quvvati, tanlab olish quvvati, hayol qilish va sezish quvvatilaridir. Bulardan so‘zlash quvvati bilim va hunar egallaydi uning yordamida bajarilishi zarur bo‘lgan va bo‘lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi. Aqliy bilish tushunishning mexanistik yodlashdan ustunligini takidlaydi.

Inson tushunish, fahmlash, fikrlash qobiliyatiga ega va bu xususiyatlar bolaning o‘sib, kamolga etib borishi bilan rivojlanib boraveradi.

Sharqning ilg‘or mutaffakkirlaridan biri Roziy Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyadir. U aql masalasiga alohida e’tibor berdi va aql bilan inson hayvonot dunyosidan ustun turushini, aql orqali o‘z hohish va istaklariga etishish mumkinligini uqtiradi “Aql orqali biz o‘zimizni ulug‘lovchi ziynatlovchi va hayotimizni hayrli qiluvchi hamma narsani bila olamiz”, - deb ko‘rsatadi. Aql yordamida erving shaklini quyosh va oyning kattaligini yulduzlar harakatini, ularning uzoqligini bilib olamiz deydi. U ilmiy tadqiqot ishlariga alahida e’tibor berdi. Bu tadqiqotlar kishi ruhiga ta’sir etishi uni aql idrokini shakllantirishga alohida urg‘u berdi. Abu

²⁸ И.П.Иванов, М.Е. Зуфарова, “Умумий психология” Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Т: 2009, 376-б

²⁹ А.Қодирий, Маънавият ўлдузлари. Т: Халқ мероси нашриёти 2001, 78-б

Bakr Roziy nafaqat falsafa balki psixalogiya faniga ham katta hissa qo'shgan mutaffakkir yirik arbob va olim hisoblanadi.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi. Shuning uchun ham unga erdag'i barcha hayvonlar bo'ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bo'lar edi.

Beruniy tashqi olamni bilishni asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarning birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo'q va hamma bilimni tez egallashi mumkin emas. SHuning uchun, inson o'zi bilib olgan narsa bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o'rganishga intilishlari shart. Ularning fikricha inson bilish tushuninish fikrlash muhokama qilish o'ylab topish kabi iste'dodlarga ega.

Inson doim voqelikni bilishga qaratilgandir. Ammo inson deydi-Beruniy-narsa hodisalarning faqat sifat va xususiyatlarida to'xtab qolmaydi, balki narsalarning chuqur va atroflicha bilish shu narsalar haqida fikr yurutishni talab qiladi. Aql tufayli inson narsa va hodisalarni bir biri bilan solishtirib qiyoslab ko'radi.

"Agar inson o'ziga yaratilgan kashfiyotlar ilmu-fan yangiliklari mohiyatini bilgach, ularni yangi qirralarini o'rganishga o'zida xohish istak kuchli ehtiyoj va malakalar hosil qilsagina, uning fikri erkin va nostandard bo'lib kashfiyotlar qilishga qodir bo'ladi. Uning aqli boshqacha fikrlash malakasini orttira borib boshqa odamlarga nisbatan mustaqil hukumlar chiqarishga o'rganib boradi. Bu esa ijodiy kamolot kalitidir".³⁰

Inson turlari doimo voqelikni bilishga qaratilgandir. "Ammo inson, - deydi Beruniy - narsa-hodisalarning faqat sifat va xususiyatlarida to'xtab qolmaydi, balki narsalarning chuqur va atroflicha bilish, shu narsalar haqida fikr yurutishni talad qiladi". Tafakkur, aql tufayli inson narsa va hodisalarni bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab ko'radi.

Sharq mutafakkirlaridan eng etugi hisoblanmish Abu Ali Ibn Sino sezgida narsa hodisalarning ayrim tashqi belgilarini, konkret tomonlarini ochib bersada, aql uning mohiyatini, ichki tomonlarini bila oladi va rivojlantiradi deb hisoblaydi. "Aql tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim, - deb yozadi Ibn Sino, chin bo'lolmaydi, demak u haqiqiy bilim emas". O'rta asrda YAqin va O'rta SHarq jumladan O'rta Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhum o'rinn tutadi. Ibn Sino ham bu masalaga katta e'tibor beradi.

Insonning bilimi bir necha darajaga ega bo'lib, asosan 4 bosqichni bosib o'tadi, so'ng etuk haqiqatni egallash, dunyoviy aql bilan bog'lanib ketishi orqali tugaydi.

Ibn Sino mantiq usullari, ta'riflash, xukum, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini o'rganishga katta hissa qo'shdi va Forobiyan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantiradi. Ibn Sino "Aqsam ul-umri ul-aqliya" ("Aqliy bilimlar tasnifi" asarida) alohida-alohida sanab va ta'rif beradi. Ibn Sino o'z dunyo qarashida pateistik tamoyiliga asoslanib: Tangri va borliq bir-biriga zid bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudodni tashkil etadi.

Ibn Sino emanatsiya nazariyasini talqin qilib quydagicha bayon etadi: Xudo absalyut birlik, nuqta, nuqtaning esa tomonlari yo'q, demak Xudo faqat bitta narsani yarata olish

³⁰ В.М.Каримова, Р.И.Суннатова, Р.Н.Тожибоева. Мустақил фикрлаш. "Шарқ" Т: 2000, 50-бет.

mumkin. “Birlikdan faqat birlik paydo bo‘lishi mumkin”. Ana shu yaratilgan birlik umumdunyoviy aql hisoblanadi. Bu birinchi aql. Umumdunyoviy aqlni Xudo zarurat tufayli yaratgan.

Umumdunyoviy aqlning uchta tomoni bor. Bitta tomoni xudoning o‘ziga qaratilib, uning o‘zini anglaydi chunki umum dunyoviy aql Xudoning o‘zi haqidagi bilimdir. Ikkinci tomoni ikkinchi aql va uning sohasini (sferasini) yaratadi. Uchinchi tomoni anashu sohaning ruhini ya’ni uning ijodiy mohiyatini yaratadi.

Har bir aqlning o‘z sohasi va ruhi bor. Aqllar mana shu tarzda yuqoridaan quyiga qarab tushadi Ibn Sinoning mashhur aks ettirish nazariyasi, ya’ni olamning inson hissiyotlari, aql va ruhida aks ettirilishi haqidagi nazariya haqiqatda olamni inson tomonidan bilih mumkinligi haqidagi nazariya hisoblanadi. Har bir aql o‘zidan quyi bo‘lgan aqlnigina boshqaradi, ya’ni hukm faqat bitta pog‘onaga o‘tadi xolos.

Ibn Sinoning bu fikri materiyaning evolutsion taraqqiyotini asoslashga bo‘lgan fandagi dastlabki harakatlardan biri edi.

O‘zbek adabiyotida Yusuf Xos Hojibning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Uning “Qutadg‘u bilig” asarida qahramonlar orqali o‘z fikrlarini bayon qiladi. Uning qahramonlaridan biri O‘gdulmish Aql va Bilim ramzi. Agar boylik, omad, baxt o‘tkinchi bo‘lsa, kishi qo‘lida doimiy turmasa, aql va bilim ularning o‘rnini bosa oladi. Asli asarning bosh qahramoni Aqldir. Adolatning bosh maslahatchisi, aqldir. Shoir aql va bilimni el-yurt, xalq farovonligi yo‘lida xizmat ettirish eng asosiy burch hisoblaydi. Aql eng avvalo Adolatga himoyachi va maslahatgo‘y bo‘lmog‘i lozim.

Mahmud ibn ul-Husayn Muhammad Qoshg‘ariy (XI asrda yashagan). O‘rta Osiyolik mashxur olim, mutafakkir. O‘zining “Devonu lug‘otit turk” asarida “Ilmlı, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o‘rganib amalga oshir” - deb ta’kidlaydi.³¹

Nosir Xisrav fikricha, inson o‘z aqli bilan mutlaq vujudning tashqi zohiriy tomoni- kull aqlni bilib olishi mumkin. Kull aql Xudodan ajralgan, tajalliy etgan ruhiy mohiyatdir. Kull aqldan esa jahoniy jon yoki nafsi kull, uning oqibatida jismoniy olam, undagi mavjudotlar vujudga kelgan. Inson noqis jonu aqlga ega, komillashish uchun poklanish lozim.

XI asrning 82-83-yillarida g‘arbiy eron shohi nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li gilanshohga bag‘ishlab “Nasihatnomia” sini yaratadi va uni bobosi Shamsul moaliy Qobus sharafiga “Qobusnomia” deb ataydi. “Qobusnomia” asrlar davomida Sharq va G‘arb olimlarini e’tiborlarini o‘ziga jalb etib kelgan. “Qobusnomia” da shunday so‘zlar keltirilgan bo‘lib, insonni aqli va hunari ulug‘langan edi: “Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo‘lsa, ammo hunari bo‘lmasa, haloyiqning hurmat va izzatidin noumid bo‘lur. Andoqkim debdurlar: “Ulug‘lik aql va donishlik biladur, gavhar va nasab bila bo‘lmas”³².

Abulqosim Firdavsiyning uqtirishicha, aql va bilim har bir insonning fazilati va boyligidir. Uning fikricha, aql rahnamodir, ko‘ngilni shod qiluvchidir, shodlik va odamiylik aql tufaylidir, ko‘plik va ozlik undandir. Kimki aqlsiz bo‘lsa, uning bag‘ri o‘z qilmishidan yaralanadi.³³

³¹ К.Хошимов, С.Очил. “Ўзбек педагогикаси антологияси” 1-жилд “Ўқитувчи” Т: 1995. 185-187-6.

³² Кайковус, Қобуснома /Нашрға тайёрловчи: С.Долимов. – Т.: Ўқитувчи, 2006, 26-27-6.

³³ Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Биринчи китоб. Т., Ф.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1975, 356

XV-XVI asrning etuk namoyondalaridan biri bobomiz Alisher Navoiy asarlarida aql atamasini 27 o'rinda ishlatib, uning 27 sifati haqida fikr yuritgan. Xususan, turli xil aql sifatlarini quyidagicha tavsiflangan. Aql muhandislari-donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql oldidi ongli tushunish bo'yicha, aqlan; aql piri-tafakkur ustoz-farosatli kishilar; aql sarofi-aql zargari, aql baholovchisi; aql uyi-miya, fikru-xayol; aqlxirmoni-aql mujassamligi; aqlchiri-aql kuchi, aql quvvati; aql eshigi-aql yo'li, ongli yo'l; aql o'ti-zehn o'tkirligi, hushyorlik; aql qushi-bunga izoh hojat emas; aql hisobi-ong doirasi, chegarasi; aqldan begona-telba; aqliy javohirshunos-etuk, komil va so'zining yashirin sirlarini yaxshi tushunuvchi nozik ta'b kishilarning idroklesi; aqli kul-eng etuk aql; aqliy maslahatbin - maslahat ko'rsatuvchi, to'g'ri yo'l va to'g'ri fikrga yo'lovchi aql; aqli musharraf-sof sharaflı aql; aql mustaqim-ikkilanmaydigan, to'g'ri aql egasi, qat'iy fikrli odam; aqli musohib - fahm-farosatli kishi; aqli oz-aqldan adashmoq; aqli saloh-to'g'ri sog'lom fikr; aqli sarkash-itoatsiz, o'jar, qaysar, bo'yin tovlovchi aql; aqli sitamkor - jabr zulm qiluvchi, jafo etkazuvchi; aqlu fahmi xurdadon-nozik aql- fahm; aqlu xudbin-faqat o'zini o'yllovchi shaxs; aqli xurdabin-o'tkir, sezgir nozik aql va hokazolar.

Shunday qilib, mutafakkir aqlni rang-barang jihatlarga ajratib, ularga asoslangan holda ikki toifali aql sohiblari bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarishga qaror qiladi: nekbin aql egalari va xudbin aql egalari. Birinchi aql egalari insoniyatga ezgulik keltirib, ikkinchilari-aksincha, o'z manfaati yo'lidagina aql ishlatib, o'zgalarga ziyon etkazadi, xolos.³⁴

Abdulla Avloniy (1878–1934) o'zbek xalqining san'at va adabiyotini yuksaltirishda o'zbek milliy madaniyatini taraqqiy ettirishda, xalq maorifi ishlarini yo'lga qo'yishda katta xizmat qilgan adib, jamoat arbobi va iaste'dodli pedagogdir. U o'zbek mumtoz shoirlari va ilg'or jaxon ma'rifatparvarlarining yuksalishiga oid fikrlarga tayanib, yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda muxim xayotiy masalalarni ko'tarib chiqadi. Ularni to'g'ri xal qilishga urinadi. Fikr tarbiyasi deb yozadi Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida eng kerakli ko'p zamonalardan beri taqdir qilinub kelgan muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladur».

Shuning uchun bolaning fikrlash qobiliyatini o'stirishda muallimning roli katta axamiyatga ega deydi. Uning ta'kidlashicha, bolaning fikrlarini biron narsaga qaratish, uning o'sha narsa xaqida o'ylashiga erishish uchun uning diqqatini yaqqol narsalarga yo'naltirish, uning oldiga aniq bir masala qo'yish va unga javob topish uchun unda extiyoj paydo qilish kerak. Bunda bola fikrini muayyan tomonga yo'naltiruvchi aniq vazifalar belgilab berishda muallim katta rol o'ynaydi.

A.Avloniy jismoniy jihatdan baquvvat, sog'lom kishilar yaxshi fikrlaydilar, deb ta'kidlaydi. «Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga xam yordami bordir. Jism ila rux, ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabitidir».

A.Avloniy fikricha, butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak. Inson uning soxibidir. Chunki insonning aqli bor, shu aql orqali ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi. Aql deydi Avloniy insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. «Inson aqli va so'zi bilan xayvonlardan ayrıladı. Inson aql va idrok soyasida o'ziga keladigan zarar va yuzulmdan

³⁴ Иброҳимов А ва бошқалар. Ватан туйғуси. Т., 1996, 34-35-6.

saqlanur. Yer yuzidagi xayvonlarni asir qilub, bo‘ynidan boylab, iplarining uchini qo‘llariga bergen insonning aqidir. Ilm insonlarning madori madori, xayoti, raxbari, najotidir. Agar aqlning qo‘li nafsingni jilovlasa, insonni yomon yo‘llarga kirmoqdan saqlar. Xar narsa ko‘p bo‘lsa bahosi arzon bo‘lur; aql esa ilm va tajriba soyasida qancha ko‘paysa, shuncha qimmatbaho bo‘lur»³⁵

Darhaqiqat, shaxsdagi komillik, eng avvalo uning fikr, tafakkur erkinligini anglashidadir. Shuning uchun ham Abdulla Avloniy fikr tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashiga ko‘ra: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, qayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur” SHuni alohida ta’kidlash joizki, aqliy taraqqiyot masalasi mamlakatimiz psixolog olimlarini ham qiziqtirib kelgan.

Muhtasar qilib aytganda, Odamning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi va faqat ko‘plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir. Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda psixologiyada ikki xil qarash mavjud:

1. Intellekt - nasliy xususiyat, ya’ni avloddan avlodga o‘tuvchi tug‘ma xususiyat sifatida.
2. Intellekt - organizm imkoniyatlari va maqsadga muvofiq ta’lim tarbiya ta’sirida shakllanuvchi xususiyat sifatida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Қодирий, Маънавият юлдузлари. Т: Халқ мероси нашриёти 2001, 78-б
2. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. Биринчи китоб. Т., F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1975, 356
3. В.М.Каримова, “Психология” Ўкув қўлланма Т. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2002. 121-б
4. В.М.Каримова, Р.И.Суннатова, Р.Н.Тожибоева. Мустақил фикрлаш. “Шарқ” Т: 2000, 50-бет.
5. И.П.Иванов, М.Е. Зуфарова, “Умумий психология” Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти Т: 2009, 376-б
6. Иброҳимов А ва бошқалар. Ватан туйғуси. Т., 1996, 34-35-б.
7. К.Хошимов, С.Очил. “Ўзбек педагогикаси антологияси” 1-жилд “Ўқитувчи” Т: 1995. 185-187-б.
8. К.Хошимов, С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т. “Ўқитувчи” 1995 й. 1-жилд 38-бет.
9. К.Хошимов, С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: Ўқитувчи. 1999, 2-жилд, 47-б.
10. Кайковус, Қобуснома /Нашрга тайёрловчи: С.Долимов. – Т.: Ўқитувчи, 2006, 26-27-б.

³⁵ К.Хошимов, С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: Ўқитувчи. 1999, 2-жилд, 47-б.

11. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
12. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
13. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Сайдкулович, Джалаев Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
14. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
15. Джалаев Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.
16. Джалаев, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
17. Джалаев, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).
18. Джалаев, Б. Б. (2020). ЁШЛАР ИЖТИМОИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).
19. Джалаев, Б. Б. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).
20. Джалаев, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.
21. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).